

QORAQALPOG‘ISTON HUDUDIDA O‘SADIGAN DORIVOR O‘SIMLIK TURLARINING TAHLILI

DOI: <https://doi.org/10.66073/ReFocus-Conf/QAXAI/1014>

Abdiniyazova Gulnara Joldasbaevna

Berdax nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti Biologiya fakulteti, Dorivor o‘simliklar
agroekologiyasi va introduktsiyasi kafedrasida dotsenti, b.f.f.d.(PhD.)

E-mail: gulnarabd29@mail.ru

ANNOTATSIYA

Qoraqalpog‘iston florasida o‘zining biogeografik xususiyatlari tufayli 1110 ga yaqin turdagi [2] o‘tkazuvchi o‘simliklardan iborat bo‘lib, ular dorivor o‘simliklar xilma-xilligining markaziga aylanadi. Dorivor o‘simliklarning taxminan turlaridan an‘anaviy tibbiyotda foydalanilgan, ammo so‘nggi tadqiqotlarga ko‘ra, Qoraqalpog‘istonda 444 ta dorivor o‘simlik turlari o‘shini tasdiqlashimiz mumkin [1]. Qoraqalpog‘iston hududidagi dorivor o‘simliklar florasini taksonomik tahlil qilishda quyidagi asosiy natijalarni ko‘rsatdi. Dorivor o‘simlik turlarining asosiy qismi magnoliopitlardir. Ular 437 turdan iborat bo‘lib, umumiy dorivor o‘simliklar florasining 98,42% ni tashkil etadi. Shundan ikki pallalilar (Magnoliopsida) 86,26%, bir pallalilar (Liliopsida) 12,16% ni tashkil etadi.

Kalit so‘zlar: *Qoraqalpog‘iston, dorivor o‘simliklar, hayotiy shakli, oilasi, turkumi, turlar, dorivorlik xususiyatlari.*

ABSTRACT

Due to its biogeographical characteristics, the flora of Karakalpakstan consists of approximately 1110 species [2] of vascular plants, which become the center of medicinal plant diversity. Approximately species of medicinal plants have been used in traditional medicine, but according to recent studies, we can confirm that 444 species of medicinal plants grow in Karakalpakstan [1]. The taxonomic analysis of the medicinal plant flora in the territory of Karakalpakstan showed the following main results. The majority of medicinal plant species are magnoliophytes. They consist of 437 species, accounting for 98.42% of the total medicinal plant flora. Of these, dicotyledons (Magnoliopsida) account for 86.26%, while monocotyledons (Liliopsida) account for 12.16%.

Keywords: *Karakalpakstan, medicinal plants, life forms, family, genus, species, medicinal properties.*

KIRISH

Dunyoda dorivor va oziq-ovqat mahsulotlarining ozuqaviy yoki foydali qiymati, yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqish keng assortimentdagi dorivor va xushbo‘y-ziravorli o‘simliklar xom-ashyosining xilma-xilligini ko‘paytirish bilan bog‘liqdir. O‘z navbatida, dorivor o‘simliklar xom-ashyosiga bo‘lgan ehtiyojlarni mahalliy florada mavjud bo‘lgan yoki ekib o‘sirayotgan o‘simliklarni respublikamizning tuproq va iqlim sharoitida plantatsiya holida yetishtirish hisobiga qondirish va eksportbop dorivor o‘simliklar tanlash dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Ma‘lumki, tabobatda ishlatiladigan dori vositalarning katta qismi o‘simliklardan olinadi. Yildan yilga bunday o‘simliklarga talab oshib bormoqda.

Qoraqalpog‘iston hududining o‘simliklar qoplamasi xilma-xillikka ega. Asosan mazkur hududda mintaqaga tipik bog‘liq cho‘l o‘simliklari o‘sadi. Hudud o‘simliklari rivojlanishining tez yetiluvchanligi (efemerlar), qurg‘oqchilikka moslashuvchanligi (kseromorf), ba‘zi o‘simlik ildizlarining tuproqqa chuqur kirib borishi (freatofit), sho‘r muxitda ham vegetatsiya qilish xususiyatiga ega ekanligi (galofitlar) va boshqa xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Hozirgi kunda Qoraqalpog'iston hududi sharoitida tabiiy holda o'sadigan dorivor o'simliklar 63 ta oilaga mansub, 240 ta turkumga tegishli 444 ta turni iborat tashkil etadi [1]. Ushbu tur hudud florasining 40% tashkil etadi. Bu o'simliklardan hozirgi paytda mahalliy xalq va ilmiy tibbiyotda foydalanib kelinmoqda, ulardan ayrimlari katta zaxira bazasiga ega[1].

Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida tarqalgan dorivor o'simlik turlarining asosiy taksonomik guruhlar bo'yicha taqsimlanishi B. Sherbaev [2] Qoraqalpog'istonning umumiy florasini uchun ko'rsatgan nisbatlarga to'g'ri keladi va jami floraning 40% tashkil qiladi. Dorivor floraning yetakchi 10 oilalarida jami turlarning 61,24% dan ortiqroq qismi jamlangan[1]. Qoraqalpog'iston hududida tarqalgan dorivor o'simliklarning turkumlar va turlari bo'yicha spektrlari O'zbekiston va O'rta Osiyo florasining umumiy spektriga ham juda o'xshash [1,4].

Ularning ichida *Amaranthaceae*, *Asteraceae*, *Fabaceae* va boshqalar yetakchilik qiladigan oilalardan hisoblanadi [1].

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida tabiiy holda o'sadigan dorivor o'simlik turlari bioxilma-xilligi ajralib turadi. Hozirda ularning 4500 tur o'simlik usadi va ularning 1200 ga yaqini turi dorivorlik xususiyatiga ega[3].

Amaranthaceae oilasidan *Salsola*, *Anabasis*, *Chenopodium* turkumlari yetakchilik qildi. *Salsola* turkumidan florada 28 turi bor[1,2], ularning 9 turi dorivor o'simliklar, masalan: *Salsola arbuscula*, *Salsola australis*, *Salsola collina*, *Salsola dendroides*, *Salsola gemmascens* [1,2] va boshq. bu turkum turlari alkaloidlarga boy, qon bosimi, yaralarni bitkazishda, furunkulezda va boshqa kasalliklarda ishlatiladi [1,2,3,4]. *Anabasis*, turkumining esa florada 9 turi [1] tarqalgan ulardan 7 turining tarkibida dorivorlik xususiyatlar mavjud, shuning uchun dorivor o'simliklar qatoriga kiradi [4; 122-123-b.], ular: *Anabasis brachiata*, *Anabasis eriopoda*, *Anabasis salsa*, *Anabasis turkestanica* hududda keng tarqalgan bo'lib, bu turlarning xom ashyo zaxiralari yetarli darajada [1]. Bu o'simliklardan ginekolog kasalliklarda (ayollar kasalliklari) va yurak-tomir kasalliklarida qonni to'xtatadigan dori-darmon sifatida, yaralarda, teri kasalliklarida, sil kasalligida ishlatiladi[4].

Apiaceae oilasidan *Ferula* –ushbu turkumning 6 turi uchraydi, ulardan 5 tasi tarkibida dorivor moddalar mavjud bo'lib, dorivor o'simliklar hisoblanadi, gijjalarga qarshi, nevroz, bod, bronxial astma, sil kasalligida, qandli diabet kasalligida, jigar, sifilida, astmadagi xavfli shishlarda, bezgak, yaralarni bitib ketishida [3,4] va boshqa kasalliklarda ishlatiladi [1; 110-120-b.]. Mahalliy xalq bu o'simliklardan keng foydalanadi: *Ferula caspica*, *Ferula dubjanskyi*, *Ferula foetida*, *Ferula karelinii*, *Ferula varia* hududdagi tarqalish zaxiralari yetarli darajada.

Xulosa qilib aytganda, taksonomik tahlil natijasida *Magnoliophyta* 437 turni, shundan *Magnoliopsida* 383, *Liliopsida* 54 turlarni tashkil qilib, tabobatda, ilmiy tibbiyotda filogenetik nuqtayi nazardan rivojlangan o'simlik turlari keng qo'llanilmoqda[1].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdiniyazova G.J. Qoraqalpog'iston Respublikasining dorivor o'simliklari.//Toshkent, Bayoz-2017, -168 b.
2. Шербаев Б. Флора и растительность Каракалпакии. – Каракалпакстан: Нукус, 1988. – 304 с.
3. Ходжиматов К.Х., Априасиди Г.С., Ходжиматов А.К. Дикорастущие целебные растения Средней Азии. – Ташкент: Абу Али ибн Сино, 1995. – 112 с.
4. O.K. Khojimatov, Abdiniyazova G.J., Valeriy V. Pak Some wild growing plants in traditional foods of Uzbekistan // Journal of Ethnic Foods, 2015. – № 2. –Pp. 25-28.